RSF O‘zSQB (mablag‘ ajratiluvchi)

Mamlakat:	O‘ZBEKISTON
Loyiha raqami:	52589
Faoliyat sohasi:	Depozitar kredit (banklar)
Bildirishnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi:	FI
Tasdiqlanish muddati sanasi:	2021-yil 31-mart
Qaysi bosqichdaligi:	Tasdiqlangan
Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana	2021-yil 31-mart

Loyiha mazmuni

“O’zsanoatqurilishbank” aksionerlik tijorat banki (“O‘zSQB”) uchun mablag‘ ajratiluvchi qaytarma (regress) majburiyatisiz beriladigan va risklar taqsimlanadigan mexanizm (RSF) asosidagi 15million AQSH dollarigacha limitli kredit. Kredit olish talablariga loyiq har bir kredit oluvchining RSF doirasidagi sub-kredit mablag‘i alohida tasdiqlanadi.

Loyiha maqsadi

O‘zSQBning mablag‘ ajratiluvchi RSF mexanizmida ishtirok etishi mazkur bank uchun mahalliy xususiy korxonalarga kredit berish doirasini kengaytirish, bank mahsulotlari sonini oshirish va ulardan ko‘proq foyda olishni rag‘batlantirish imkonini beradi.

O‘tish davri ta’siri

ETI 60

RSF mexanizmi doirasida o‘tish davri ta’sirining maqsadlari nafaqat O‘zSQB, balki sub-kredit oluvchining barqarorligi va raqobatbardoshligini ham ko‘zda tutadi. RSF mexanizmi risklarni boshqarish, shu jumladan portfel risklarini diversifikatsiya qilish, yirikroq va uzoq muddatli kreditlash vositalarini, shuningdek, risklarning murakkabroq tuzilmalarini boshqarishni takomillashtirishda O‘zSQBga yordam beradi. RSF mexanizmi kichik va o‘rta biznes korxonalarini moliyalashtirish

uchun imkoniyat yaratadi, bu esa kichik biznesning yanada raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi.

Mijoz haqida

“O‘ZBEKISTON SANOAT–QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI (UZSANOATQURILISHBANK)

O‘zSQB O‘zbekistonda tashkil etilgan eng birinchi banklardan bo'lib, boshqa banklar orasida aktivlari bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi (bozordagi ulushi 13%). Bankning nazorat paketi davlatga tegishli bo'lib, u asosan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va Moliya vazirligi orqali boshqariladi.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag‘lar

15 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

USD 15 000 000,00

Ekologik-ijtimoiy xulosa

FI toifasiga kiritildi (ESP , 2019) O‘zSQB joriy mijozlardan hisoblanadi. O‘zSQB aksionerlik tijorat banki YTTBning 2, 4 va 9-loyiha talablariga (PR) doimiy rioya qilishi talab etiladi. Shuningdek u YTTBning korporativ, kichik va o‘rta biznes korxonalari va mikrokreditlar uchun atrof-muhit va ijtimoiy xatarlarni boshqarish tartib-qoidalariga amal qiladi hamda YTTBga har yili ekologik va ijtimoiy hisobotlarni topshiradi. Moliyalashtirish kichik va o‘rta biznes korxonalarida energiya samaradorligini oshirish loyihalari uchun sarflanishi ko‘zda tutilayotgani hisobga olinsa, ular uchun atrof-muhit va ijtimoiy xavf-xatarlarning umumiy darajasi o‘rtacha hisoblanadi. O‘zSQB ATBning Tevarak atrof va ijtimoiy muhitni boshqarish rejasi (ESMS) ana shunday turdagi investitsiyalar uchun mos keladi.

Texnik ko‘mak

Ehtiyojlar va moliyaviy mablag‘lardan ajratilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, RSF doirasidagi sub-kreditlar Texnik ko‘mak jamg‘armasi(TC), Aksiyadorlarning alohida jamg‘armasi (“SSF”), Kichik biznesga ko‘maklashish jamg‘armasi (SBIF), Tadbirkor ayollarning moliyaviy tashabbuslari dasturi (We-Fi) va boshqa potensial donorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Qo‘shimchalilik sharti

Qo‘shimcha shartlar quyidagilar majmuasi orqali erishiladi: (i) mahalliy korxonalar uchun o‘rta va uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanishni ta'minlovchi innovatsion moliyalashtirish tuzilmasi (ii); O‘zSQBga o‘z kapital mablag‘larini band qilmaslik imkoniyatini berish va mahalliy valyutada sub-kreditlarni moliyalashtirishni rag‘batlantirish; (iii) sub-kreditlarni tasdiqlash va moliyalashtirishda YTTB ishtiroki orqali tegishli standartlarni belgilash.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma’lumot

Afzal Musaxanov
a.musakhanov@uzpsb.uz
+99897 745 7383
www.sqb.uz
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi 3-uy. Pochta indeksi: 100000